

## OILAVIY MUNOSABATLAR VA OILADAGI MULOQOT PSIXOLOGIYASI.

**Do'sjono'va Nilufar**

*Ajinyoz nomidagi nukus davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oiladagi muloqot va unda yuzga keladigan keladigan to'siqlar haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek maqolada muloqot madaniyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik to'siqlar, vaziyatli to'siqlar, mazmuniy motivatsion to'siqlar, attaraksiya.

Oilalarda munosabatlar o'ziga xos, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa er-xotingga kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlarda tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilm iy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Albatta, oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovinchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo'yichami, qanday bo'lishidan qat'inazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinkilik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday

emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat yetishgan bo'ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha muvofiqdirlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi. Ularning bir-birlariga, o'z nikohlariga, o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari egru, ijobiy bo'ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo'lajak turmush o'rtog'im,



yangi oilam - ning yangi a'zolari bilan nizo-janjalgaga boraman, ular bilan urisham an va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman, deb oilaqurmaydi (Ayrim hollarda m ajburan oila qurganlar bundan m ustasno). Inson oila qurarekan ahil-inoq yashab, m urod-m aqsadga yetishishni orzu qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindosh - urug'lar, to'yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o'rtog'i timsolida, o'zining shu orzu-istaklariga, murod-maqsadlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qollab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o'z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga im kon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo'lishga harakat qiladi.

Er-xotinlarning oiladagi muloqoti, shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunish bilan birga, dast avval ishdan tashqari, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Ham kasblar, o'rtoqlar, do'stlar va sevishganlar hamm a vaqt ham birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, qaytanga, o'z muloqotlarini o'zlari xohlagan vaqtlarida biroz kamaytirib, hatto uzib (to'xtatib) qo'yishlari hammumkin (uchrashuvga borishi lozimligi i «unitib» qo'yish , kutilmaganda «juda band» bo'lib qolishi mumkin va sh.k). Er-xotinlar esa ko'p incha bundayim koniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «mahkum» etilgan . Qadimiy, afsonaviy Sparta qonunchiligida er-xotinlarn i ishqiy munosabatlarining sovuqlashib ketishidan saqlash maqsadida ularning muloqotlari imkon qadar chegaralab qo'yilgan. Unga ko'ra erlar xotinlaridan ajratilgan holda, ya'ni er va xotin boshqa-boshqa yashaganlar va ular faqat ovloq joylardagina, «begona ko'zlardan» yashirin tarzda uchrashib turishlari mumkin bo'lgan. Bu tadbir nafaqat Sparta jangchilari o'zlarining jangovar ruhlarini yo'qotmasligi, o'zlarining yosh xotinlari bilan mashg'ul bo'lib qolmasliklari uchungina emas edi. Bunda «taqiqlangan meva» effektidan fo ydalanilgan. U chrashishlarning qiyinligi, xuddi tuzsiz taom ga tuz, ziravorlar qanchalik maza berganidek, er-xotinlarning bir-birlariga hissiy yaqinligini sezilarli darajada kuchaytiradi, nikoh rishtalarini mustahkamlaydi. Yoki Shekspirning qahramonlari Romeo va Julettalar ham , agar ular unashtirilganlaridan so'ng barcha qulayliklari bilan alohida «koshona» berilganda edi, ular o'zlarini boshqacha tutgan bolishardi.

Ijtimoiy psixologlar muloqot jaryonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: **psixologik**, **vaziyatli**, **mazmuniy** va **motivatsion** to'siqlardir.



**Psixologik to'siq** — bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlan ish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy im koniyatlarini nam oyon qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi, o 'ziga hos ichki psixik torm ozdir.

**Vaziyatli to'siqlar** — bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog'liq.

**Mazmunliy to'siqlar** — odatda suhbatdoshini tushunm aganlik tufayli, uning m azkur jumlası qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

**Motivatsion to'siqlar** — shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ulami (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Odamlar o'rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatining eng m uhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy m adaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatlıligi va shu kabilarning barchasi m uluqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og'rig'i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand m oddalarga ruju qo'yish, hatto o 'z joniga qasd qilish kabilar ham shu m uluqotning natijasidir. Rivoyatiarda aytilishicha, dono Ezop o 'z xo'jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taom ni keltir va undan so'ng aksincha eng bem aza, yaramas taomni keltir», — deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til, muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrli boMishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mum kin. Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'z-o 'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi.

Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan m unosabatda bo'lishni, ularga ham dardlik,



insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita em otsional m unosabatlar m uhim rol o'ynaydi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekistonlik olimlar (*M.Davletshin, G'.Shoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov* va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o'rganganlardan biri rus olimi *L.Ya. Gozman* (1987) hisoblanadi. U bu qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun **attraktsiya** tushunchasini ishlatgan. **Attraktsiya** inglizcha *attraction* – *tortilish, intilish* so'zlaridan olingan bo'lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya'ni, diada – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraktsiya bilan bog'liqdir. Umuman yosh oilalarda er-xotin m unosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillarining xarakteriga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ,ushbu maqolada siz o'zingizga ma'naviy ozuqa olishingizga Shubha qilmaymiz ,maqola orqali siz oilaviy munosabatlar,oiladagi muloqot va unda yuzaga keladigan to'siqlar haqida ma'lumotlar olasiz va oilaviy munosabatga kirishishda oilaviy munosabatlar va oilaviy muloqot haqida bilimlaringizni boyitsangiz bu bizning yutug'imizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'.Shoumarov«Oila psixologiyasi»Toshkent-2011
2. V. Karimova « Oila psixologiyasi » Toshkent-2007
3. D.Arapbaeva,N.Kurbonova ,N.Toshpolotova  
«Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari»metodik qo'llanma Toshkent-2019
4. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov,







N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova,  
M.A.Rasulxo'jayeva, R.Avezova. «Oila pedagogikasi» Toshkent-2007

